

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil. 03.01
ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

ASLANOVA AZIZA FAXRIDDINOVNA

**MILLIY BRENDINGNI RIVOJLANTIRISHDA
DIGITAL PRNING O‘RNI**

10.00.09 – Jurnalistika ixtisosligi bo‘yicha

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

UO‘K: 659.1:004(575.1)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological
sciences**

Aslanova Aziza Faxriddinovna

Milliy brendingni rivojlantirishda Digital PRning o‘rni 4

Асланова Азиза Фахридиновна

Роль Digital PR в развитии национального брендинга 24

Aslanova Aziza Faxriddinovna

The Role of Digital PR in Developing National Branding 48

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 51

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2673 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.uzjoku.uz) va "Ziyo-net" ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Qosimova Nargis Sunnat qizi**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Ismailova Klimentina Fuzailovna**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Begniyazova Qumar Allambergenovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti huzuridagi Ilmiy daraja beruvchi DSc.03/2025.27.12 Fil.03.01 raqamli Ilmiy kengashning 20__ yil "_____" soat "_____" dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100017, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel.: (99871) 207-09-06; e-mail: journalism.univer@gmail.com).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100017, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel.: (99871) 207-09-06; e-mail: journalism.univer@gmail.com).

Dissertatsiya avtoreferati 20__ yil "_____" kuni tarqatildi.
(20__ yil "_____" dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sherzodxon Qudratxo'ja
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
siyosiy fanlar doktori, professor

Alijon Safarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari
doktori(DSc), dotsent

Nozima Muratova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori(DSc), dotsent

KIRISH

(Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida kontent yaratuvchi va kontent iste'mol qiluvchi maqomlarining bir-biriga qorishib ketishi natijasida auditoriya e'tiborini tortish mushkul vazifa sifatida baholanmoqda. Bu esa branding, shaxsiy brend, tashkilot brendi, jamoatchilik bilan aloqalar, reklama kabi tushunchalarning fundamental ahamiyat kasb etishiga olib keldi. Globallashuv va internet asrida brandingni OAV yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali ilgari surish tizimining an'anaviydan raqamli formatga ko'chgan holda keng qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Dunyo miqyosida PR va brend samaradorligini raqamli o'lchash, onlayn reputatsiya boshqaruvi va krizis PR strategiyalari, influens marketing va kontent PR metodlari, shuningdek, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan PR texnologiyalari, neyromarketing va auditoriya psixologiyasi orqali brend kontentining ta'sirini oshirish kabi yo'nalishlar bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, Digital PRni milliy brandingni shakllantirish va mustahkamlashning strategik vositasi sifatida qo'llash, davlat tashkilotlarida raqamli kommunikatsiyalar orqali brend imidjini shakllantirish, jurnalistik materiallar va media-kontent tahlili yordamida Digital PR instrumentlarining auditoriyaga ta'siri, shuningdek, milliy brendni targ'ib qilishda Digital PR tipologiyasi va strategiyalarini tizimli qo'llash amaliyoti dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston media muhitida axborot xizmatlari faoliyatining keng yo'lga qo'yilishi natijasida tashkilot imidji, milliy branding va Digital PR tushunchalari davlat tashkilotlari uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Nafaqat ichki, balki tashqi brandingni OAV orqali ilgari surish bu sohani milliy jurnalistika uchun ham o'rganish nuqtasiga aylantirdi. "Ayni vaqtda ommaviy axborot vositalarida xolislik va qonun ustuvorligini ta'minlash, professional bilim va mahoratni oshirib borish, axborot tarqatishning zamonaviy usullarini o'zlashtirish, aholi o'rtasida axborot, bahs va muloqot madaniyatini shakllashtirish, jamiyatimizdagi turli illatlar, korrupsiya balosiga qarshi kurashish kabi dolzarb vazifalar bo'yicha hali ko'p ish qilishimiz zarur"¹. Bu esa xalqaro maydonda milliy mass-media nazariyasida milliy brandingni ilgari surishdagi jamoatchilik bilan aloqalarning eng so'nggi usullarini tatqiq qilish, undan olingan xulosalarni amaliyotga tatbiq etish zaruratini talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida", "Jurnalistlik faoliyatni himoya qilish to'g'risida", "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunlari² hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079 sonli "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 2-fevraldagi "Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5653-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmonlari³ va 2022-yil

¹ Mirziyoyev Sh.M. Matbuot va OAV xodimlariga tabrik // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8269> (murojaat sanasi: 10.09.2025).

² O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida" // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1997. – № 4–5. – 110-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 19.04.2018. – № 03/18/476/1087; 21.04.2021. – № 03/21/683/0375

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2017. – № 6. – 70-modda; № 20. – 354-modda; № 23. – 448-modda; № 37. – 982-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. –

27-iyundagi “Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijlik olimlarning branding, reklama, marketing va raqamli PR tushunchasi to‘g‘risidagi qarashlar J.Skinner, K.Keller, R.Jennifer, A.Goldfarb, M.Kaplan, F.Kotler, S.Anholt, D.Reddingkabi ilmiy izlanishlarida keng o‘rganilgan⁴.

MDH davlatlari olimlarining mediada raqamli PR, reklama, marketing hamda brend jurnalistikasi bo‘yicha A.Nazaykin, Ye.Rudaya, S.Sologubov, Ya.Jukova, L.Uveynsteyn, D.Baranov, Ye.Demko, M.Lukashenko, O.Kaznina, A.Chumikov, M.Bocharov, M.Tishkova, F.Sharkov, A.Miroshnichenko, N.Bolshakov, K.Mayorova kabi olimlarning ilmiy qarashlari fundamental ahamiyatga ega⁵.

O‘zbekiston tadqiqotchilaridan branding, mamlakat imiji, an‘anaviy va zamonaviy PR texnologiyalar to‘g‘risida J.Jalilov, Sh.Ro‘zimatov, M.Tairova, B.Alimov, S.Eshmatov, A.Yusupov, I.Abdullayeva, N.Qosimova, M.Haitova, G.Nishonova kabilar tadqiqotlar olib borishgan⁶. Lekin ushbu tadqiqotlarda milliy brandingda davlat

31.07.2018. – № 06/18/5483/1594; 11.12.2019. – № 06/19/5892/4134; 17.03.2021. – № 06/21/6188/0216; 01.05.2021. – № 06/21/6217/0409.

⁴ Skinner J. Marketing (2nd ed.). – Boston: Houghton Mifflin Co., 1994. Keller K. L. Building, Measuring, and Managing Brand Equity. – New Jersey: Pearson Education, Inc., 1998. Kotler F. Основы маркетинга. Краткий курс. – М.: Вильямс, 2015. Anholt S. Handbook on Tourism Destinations Branding. – Madrid: World Tourism Organization (WTO), 2009. Jennifer R. Advertising and Promotion: An Integrated Marketing Communications Perspective. – New York: McGraw-Hill Education, 2017. Goldfarb A., Tucker C. Digital Economics. – Cambridge, MA: MIT Press, 2019. Kaplan A., Haenlein M. Social Media: Back to the Roots and Back to the Future. – Business Horizons, 2019. Kaplan A., Haenlein M. Users of the World, Unite! The Challenges and Opportunities of Social Media. – Business Horizons, 2010. Kotler F., Kartajaya H., Setiawan I. Marketing 4.0: Moving from Traditional to Digital. – New Jersey: Wiley, 2017. Реддинг Дж. Р. Реорганизация маркетинговых коммуникаций в интернет-среде // Internet Research. – 2001. – № 3. – С. 203–210.

⁵ Жукова Я. Возможности контент-анализа рекламных и PR-материалов // Практический маркетинг. – 2008. – № 3. Назайкин А. Что такое бренд сегодня [Электронный ресурс]. – URL: [http://www.nazaykin.ru/ br brand.htm](http://www.nazaykin.ru/br_brand.htm). Рудая Э. А. Основы бренд-менеджмента: учебное пособие для студентов вузов. – М.: Аспект-Пресс, 2006. Сологубов С. Н. Построение и развитие брендов товаров массового потребления: дисс.канд. экон. наук. – Волгоград: ВолГГТУ, 2006. Баранов Д. Е., Демко Е. В., Лукашенко М. А. PR: теория и практика. – М.: Маркет ДС, 2010. Каплан А. М. Если вы любите что-то, отпустите это в мобильную среду: мобильный маркетинг и социальные медиа 4×4 // Бизнес горизонты. – 2012. – № 2. Казнина О. Современные методы продвижения бренда: цифровой брендинг // Бренд-менеджмент. – 2015. – № 1. Чумиков А. Н., Бочаров М. П., Тишкова М. В. PR в Интернете: Web 1.0, Web 2.0, Web 3.0. – М.: Альпина Паблишер, 2020. Шарков Ф. И. Интегрированные коммуникации: реклама, публик рилейшнз, брендинг. – М.: Дашков и К, 2020. Майорова К. Современные инструменты PR-деятельности организации // Economy and Business: Theory and Practice. – 2023. – Вып. 7

⁶ Alimov B. S. XXI asr media muhitida O‘zbekiston imijini shakllantirishning nazariy-kognitiv aspektlari (AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiya va O‘zbekiston OAV materiallari misolida): fan doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021. Qosimova N., Bobojonova G., Isloмова L. Axborot xizmatlari uchun amaliy qo‘llanma: jamoatchilik bilan samarali muloqot. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013. Haitova M. Davlat tashkilotlari axborot xizmatlari PR kommunikatsiyalarining ijtimoiy xususiyatlari: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, 2025. Jalilov J. Branding va kompaniya imijini shakllantirishda kommunikatsion strategiyalar. – Toshkent, 2018. Ro‘zimatov Sh. Raqamli PR va marketing kommunikatsiyalari: nazariy va amaliy asoslar. – Toshkent, 2019. Tairova M. Brendni boshqarish tizimlari va strategiyalar: amaliy qo‘llanma. – Toshkent, 2020. Eshmatov S. Zamonaviy brend

tashkilotlarining ishtiroki, o'rnini va bu jarayonda raqamli PR strategiyalari, instrumentlari va metodlarini qo'llashi kompleks ravishda tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Zamonaviy PR va jamoatchilik bilan aloqalarning dolzarb masalalari" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Digital PR strategiyalari, texnologiyalari, usullari va instrumentlaridan foydalanishini tahlil qilish orqali davlat tashkilotlarining mamlakat milliy brendini rivojlantirishdagi ishtirokini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"brend", "branding", "milliy brend", "milliy branding" tushunchalari va ularning o'ziga xos funksional jihatlarini ta'riflash;

O'zbekistonda milliy brandingning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tasniflash;

Digital PRni tipologik tasniflash va brandingda raqamli jurnalistikaning ahamiyatini ochib berish;

mamlakat milliy brendini shakllantirishda davlat tashkilotlarining o'rnini O'zbekiston va Germaniya oliy ta'lim vazirliklari, shuningdek, Xalq banki va Adliya vazirligi faoliyati, xususan, Digital PRni qo'llashi misolida tahlil etish;

jurnalistik materiallar tahlili orqali Digital PRning auditoriyaga ta'sirini aniqlash;

tashkilot nomini tanitishda natijaviylikni baholash usullariga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida davlat tasarrufidagi boshqaruv organlari, tashkilotlar (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi) va Germaniya tasarrufidagi vazirlik (Ta'lim va ilmiy tadqiqotlar federal vazirligi) belgilangan.

Tadqiqotning predmetini mazkur davlat tashkilotlari tomonidan o'z brendini ilgari surishda foydalanilgan strategiyalar, PR usullari va instrumentlari hamda OAVda e'lon qilingan mediamahsulotlarni tadqiq qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida umumiy (analiz, sintez) va maxsus (xronologik, qiyosiy, tipologik, statistik tahlil) metodlaridan foydalanilgan. Shuningdek, onlayn so'rovnomalar, intervyu, kuzatuv hamda kontent-tahlil metodlariga ham murojaat qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

davlat tashkilotlari faoliyati milliy brend sifatida o'rganilib, "Digital PR" ning Social Media PR, kontent PR va multimedia PR tipologiyasi strategiyasini amalga oshirishda media-jurnalistika, raqamli PR va auditoriya kommunikatsiyasi integratsiyasi dalillangan;

davlat tashkilotlari axborot xizmatlarida PR instrumentlari qidiruv optimizatsiyasi, kontent-marketing, kontekst reklama, kollaboratsiya, nativ reklama, video reklama, E-mail-marketing klassifikatsiyasi ishlab chiqilib, auditoriyaning milliy brendni qabul qilish jarayonida infopovoddan foydalanish samarali ekanligi isbotlangan;

digital PR instrumentlarining axborot xizmatlari faoliyatida qo'llanilishi natijasida shakllanadigan kommunikatsiya samaradorligini baholash uchun "tizimli brend jurnalistikasi" modeli ishlab chiqilgan;

strategiyalari va marketing kommunikatsiyalari. – Toshkent, 2017. Yusupov A. Brendni rivojlantirishning innovatsion usullari. – Toshkent, 2021. Abdullayeva I. Jamoatchilik bilan aloqalarda PR texnologiyalari va ularning samaradorligi. – Toshkent, 2019. Nishonova G. Mahsulot va xizmatlar brendini yaratish va rivojlantirish: nazariy asoslar. – Toshkent, 2020.

branding va Digital PR tadqiqotida davlat tashkilotlari tomonidan qo'llanilgan raqamli PR strategiyalari influence marketing, target samaradorligi tahlilida "brend sotsiologiyasi" mexanizmlari auditoriyaning institutsional ishonchini shakllantiruvchi modeli ekanligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan oliy ta'lim muassasalari matbuot kotiblar uchun tashkil etilgan seminar-treninglarda trener sifatida ishtirok etilgan va dissertatsiya mavzusi yuzasidan OTM imijini shakllantirish, ularning mavqeyini oshirish hamda Digital PR texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bilimlar oshirilgan;

dissertatsiya natijalariga ko'ra, brend yaratish strategiyasida zamonaviy texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishni ta'minlash uchun raqamli PR sohasida mutaxassislar tayyorlash borasida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga takliflar kiritilgan.

tashkilot brendini jamoatchilik orasida shakllantirishda tashkilot axborot xizmatlari uchun OAV, internet, ijtimoiy tarmoqlar, PR xodimlari bilan ishlash borasida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llangan yondashuv va usullarning ilmiy asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning olingan natijalar bilan mosligi, tadqiqot natijalarining xalqaro va mahalliy tadqiqotlar bilan taqqoslanganligi, shuningdek, tajriba-sinov ishlarining tahlili va natijalar sifatining ta'minlanganligi, chiqarilgan xulosa hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilma tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati mavzu yuzasidan to'plangan tahlil va xulosalar zamonaviy jurnalistikada dolzarb bo'lgan jamoatchilik bilan aloqalar, reklama kabi yo'nalishlardagi mavjud nazariy ma'lumotlarni to'ldirishga xizmat qilishi, shuningdek, milliy brandingni aynan raqamli PR orqali rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish hamda amaliyotda keng foydalanish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati davlat tashkilotlarining axborot xizmati jamoasi uchun tashkilot nomini tanitishdagi eng so'nggi tendensiyalarni o'rganishda manba vazifasini bajara olishi, uning xulosalaridan oliy ta'lim muassasalarida jamoatchilik bilan aloqalar yo'nalishi mutaxassislarini tayyorlash uchun "Jamoatchilik bilan aloqalar va reklama asoslari", "Jamoatchilik bilan ishlash", "Saylovda PR texnologiyalari" kabi fanlar hamda maxsus kurslar tashkil etishda amaliy manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Milliy brandingni rivojlantirishda raqamli PRning o'rnini tadqiq qilish yuzasidan ilmiy natijalar asosida:

davlat tashkilotlarining milliy brendni tanitish, jurnalistikada milliy branding va Digital PR tipologiyasi tasniflash O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti web-resurslar va elektron ommaviy axborot vositalari bilan ishlash bo'limi ijtimoiy tarmoqlari faoliyatini takomillashtirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2025-yil 26-maydagi 40/394-son ma'lumotnomasi). Natijada vazirlikning ijtimoiy tarmoqlarda o'ziga xos integrallashgan axborot makoni shakllantirishga va ijtimoiy tarmoqlarda milliy brendga oid tasavvurlarni barqarorlashtirishga erishilgan;

ijtimoiy tarmoqlarni yuritish, auditoriyaning jalb qilish va kengaytirish PR kontent tahlilida ijtimoiy tarmoq instrumentidan foydalanish, matnlarda reklama punktlarini ko'paytirish, maqsadli auditoriyaning og'riqli nuqtalariga qaratilgan kontentlar sonini orttirish va infopovoddan samarali foydalanish, klassik yondashuvdan ko'ra raqamli

yondashuvlarga ko‘proq e‘tibot qaratish amaliyoti Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ijtimoiy tarmoqlarida foydalanilgan. (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-apreldagi 25/25-1069-son ma‘lumotnomasi). Natijada vazirlikning ijtimoiy tarmoqlarida auditoriyaning ishtirok darajasini oshishiga, izohlar, repostlar va interaktiv munosabatlar ko‘payishiga xizmat qilgan;

PR mutaxassislari faoliyatida turli “negativ”larga oriqcha vaqt sarflashning oldini olish, asosan, ish samaradorligi ko‘rsatkichlarini tashkilot brendini tanitishga yo‘naltirish, ijtimoiy tarmoq instrumentidan faol foydalanish va tashkilot brendingini OAV orqali ilgari surishda axboriy va hissiy komponentlar nisbatini tenglashtirish muhim ekani O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi ish jarayonida foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan 2025-yilning 18-aprelda taqdim etilgan 16-17-son ma‘lumotnomasi). Natijada tashkilot brendingi ijtimoiy tarmoqlardagi ko‘rinishi yanada yaxlitlashib, auditoriya bilan muloqotning konstruktivligi ortgan, shuningdek, kontent tarqalish dinamikasi ortib, ijobiy uslubdagi sharhlar, repostlar va qo‘llab-quvvatlovchi fikrlar bilan boyishiga olib kelgan;

PR xodimlari faoliyati natijalarini tizimli tahlil qilish, sotsiologik tadqiqot natijalarini PR faoliyatiga integratsiya qilish va “brend sotsiologiyasi” tamoyillarini amaliyotga joriy etishga doir yondashuv O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi rasmiy ijtimoiy tarmoqlarida foydalanilgan. (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 19-apreldagi 05/2433-son ma‘lumotnomasi). Natijada tashkilotning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari takomillashtirilib, brend va auditoriya o‘rtasidagi kommunikatsiya samaradorligini sezilarli ravishda oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot ishi natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan hamda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 7 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola va 3 ta xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, ishning umumiy hajmi 149 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti hamda predmeti aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, uning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, olingan natijalarning ishonchligi shakllantirilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan, dissertatsiyaning tuzilishi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning **“Brendingning nazariy asoslari va funksional xususiyatlari ”** deb nomlangan birinchi bobida branding tushunchalari va uning funksional o‘ziga xosligi aniq va har tomonlama ta‘riflangan bo‘lib, bu keyingi tahlillar uchun mustahkam asos yaratadi. Shuningdek, brandingning davlat tashkilotlari idrokiga ta‘siri kabi muhim jihatlarni ishonchli ochib berilgan, uning milliy o‘ziga xoslik va

xalqaro imidjga ta'siri ta'kidlangan.

Mazkur bobning birinchi paragrafida milliy va ichki brendinglarni tahlil qilishdan oldin "branding" tushunchasini ko'rib chiqilgan.

Bugungi kunda brend atama, belgi, ramz yoki boshqa xususiyatlardan ancha keng ma'nolarga ega. Ilgari kompaniyalar bozorda o'z o'rnini belgilash va mijozlari bilan mustahkam aloqalar o'rnatish uchun hozirgidek bu qadar katta imkoniyatlarga va kuchli raqobatga ega bo'lmagan. "Brend" tushunchasi har doim "branding" atamasi bilan birga qo'llaniladi. Sababi, "branding" – bu kompaniyaning ijobiy imijini yaratish, uni keng targ'ib qilish va iste'molchilar ongida mustahkamlash jarayoni, oddiy qilib aytganda, brend boshqaruvidir.

Branding nazariy asoslarini o'rganishni tarixiy aspektda markalashning rivojlanishini tahlil qilishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. S.N. Sologubov o'z ishida brendlash rivojlanishini to'rtta asosiy bosqichga ajratadi.

Birinchi bosqich XIX asr – XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrda brendlash konsepsiyasini ishlab chiqish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan va xaridorga mahsulot to'g'risida ma'lumot berish vositasi bo'lib xizmat qiladigan birinchi brendlar paydo bo'lgan.

Ikkinchi bosqich (1931–1970-yy.) – bu davrda branding evolyutsiyasi sodir bo'lib, brend nafaqat kompaniya mahsuloti, balki butun kompaniya bilan birlashadi. Shu tariqa branding tashkilot faoliyatining mustaqil yo'nalishi sifatida ajralib turadi.

Uchinchi bosqich (1950–1980) – bu bosqichda raqobat iste'molchilarning idrok etish darajasiga o'tadi va brend tovarning iste'mol qiymatini oshirish vositasi sifatidagi ahamiyatini kuchaytiradi.

To'rtinchi bosqich – zamonaviy davr (1990-yildan hozirgi kungacha) – bu davrda brendlashning ahamiyati tobora ortib, bu jarayon brendlarni boshqarishning maxsus tizimlarini yaratishga olib keladi.

Brend xizmatlar, mahsulotlar, displeylar va raqamlashtirilgan dunyo orqali namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, u tashkilotga tegishli barcha narsani, jumladan, nufuz, madaniyat va asosiy qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Funktsiyasidan kelib chiqqan holda uni ikki turga bo'lish o'rinlidir⁷:

- ichki branding;
- tashqi branding yoki milliy branding.

Ichki brend – bu muayyan obyektning faqat tegishli hudud ichida amalga oshiriladigan faoliyatidir. Tashqi branding esa muayyan bir obyektning o'z hududidan tashqarida olib boriladigan harakatlarini ifodalaydi. Tashqi brendni, shuningdek, milliy branding deb ham atash mumkin, chunki bu faoliyatda davlat yoki tashkilotning o'ziga xosligi tashqi auditoriyaga taqdim etiladi.

Shuningdek, mazkur bobda "Brend" tarixi va tasnifi, brendning nazariy asoslari, uning vazifalari va ahamiyati, raqamli muhitda brandingning o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi hamda xorij olimlari J.Skinner⁸, K.L. Keller⁹ va F.Kotler¹⁰, MDH davlatlari

⁷ Tairova M. M. va boshq. Brendni boshqarish: o'quv qo'llanma. – Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy", Durdona nashriyoti, 2021. – B. 148.

⁸ Skinner J. Marketing (2nd ed.). – Boston: Houghton Mifflin Co., 1994.

⁹ Keller K. L. Conceptualizing, Measuring, and Managing Customer-Based Brand Equity // Journal of Marketing. – 1993. – Vol. 57, No. 1 (Jan.). – P. 1–22.

¹⁰ Kotler F., Gertner D. Country as a Brand, Product and Beyond // Brand Management. – 2002. – Vol. 9, No. 4–5. – P. 249–261.

olimlari Malishkina A¹¹., Pankruxin A¹²., va S. Eshmatov¹³, J.Jalilov¹⁴ kabi o'zbek olimlarining ta'riflari keltirilgan.

Birinchi bobning ikkinchi faslida O'zbekistonda brending faoliyatining shakllanish va rivojlanish evolyutsiyasi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur qismda mamlakatimizdagi rivojlanish tarixi, marketing ilmi va uning asoslarini shakllantirish, zamonaviy marketing konsepsiyalaridan foydalanish orqali milliy tovarlar raqobatbardoshligini oshirish, milliy brendingni boshqarishda digital PRning o'rni va ahamiyati o'rganilgan.

O'zbekistonda brending sohasida ikki xil tendensiyani kuzatish mumkin. Birinchisi, mahalliy mahsulotlar yoki kompaniyalar nufuzini jahon bozoriga olib chiqib, tanitish borasidagi islohotlar. Ikkinchisi, dunyoning mashhur brendlari mamlakatga olib kirish bo'yicha harakatlar. "Garvard universiteti tadqiqotlariga ko'ra, mamlakatimiz 50 dan ortiq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda barcha imkoniyatlar va nisbiy ustunliklarga ega. Ayniqsa, neftgaz-kimyoy, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari, to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat hamda "yashil iqtisodiyot" bilan bog'liq sanoat tarmoqlari iqtisodiyotimiz "drayverlari"ga aylanishi uchun barcha yetarli sharoitlar mavjud". Ammo, milliy brending rivojiga qaratilgan hukumat islohotlarida ham ta'lim sohasi yetarlicha aks etmayotganini ta'kidlash o'rinli.

O'zbekistonda brending sohasida ikkita asosiy tendensiya mavjud: biri mahalliy mahsulotlar yoki kompaniyalar nufuzini jahon bozoriga olib chiqib, tanitish, ikkinchisi esa dunyoning mashhur brendlari mamlakatga olib kirish. Digital PR bu ikki tendensiyaning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi va uning ahamiyati har ikki holatda tahlil qilinadi.

Tadqiqotchi Abror Yusupov fikriga ko'ra, "O'zbekiston jahon bozorida milliy brendni ilgari surish bo'yicha ulkan imkoniyat va zaxiralarga ega. Xususan, mamlakatimizning eksport jug'rofiyasi izchil kengayib, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Quvayt, Ummon singari qator davlatlarda savdo uylarini ochish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda"¹⁵.

Ikkinchi tendensiya, ya'ni jahonning kuchli brendlari mamlakatga olib kirish bo'yicha harakatlar bir necha yil oldin faol fazaga o'tganini ta'kidlash joiz. Xususan, 2019-yilda ijtimoiy tarmoqlar va Internet saytlarida "Nike" brendi O'zbekistonga kirib kelayotgani to'g'risida xabarlar berilgan edi. 2023-yilning avgust oyida Andijon viloyatida "Sino International" xorijiy kompaniyasi tomonidan "Nike" brendi ostidagi krossovkalarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgani ma'lum qilindi¹⁶. Xabarda keltirilishicha, "Nike" transmilliy kompaniyasi bu jarayonga 2019-yilda rasman ruxsat

¹¹ Мальшикина А. История бренда или история о бренде // *Социально-экономические явления и процессы*. – 2014. – № 3 (061). – С. 73..

¹² Панкрухин А. Бренд и брендинг // *Практический маркетинг*. – 2011. – № 4 (170). – С. 5.

¹³ Eshmatov S. Mahalliy brendni shakllantirishning marketing strategiyasi (sut va sut mahsulotlari misolida): iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021. – B. 14.

¹⁴ Jalilov J., Ro'zimatov S. Korxonada brendingni yaratishda mahsulot qiymatining ikki yoqlama harakati // *Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations*. – 2021. – Special Issue 7. – B. 249–255.

¹⁵ Yusupov A. // O'zbekiston taraqqiyotida yangi sahifa: Pragmatik va samarali muloqot hamda kreativ iqtisodiyot sari. // <https://kun.uz/news/2017/08/10/uzbekiston-tarakketida-angi-saifa-pragmatik-va-samarali-mulokot-amda-kreativ-iktisodiet-sari?q=%2Fnews%2F2017%2F08%2F10%2Fuzbekiston-tarakketida-angi-saifa-pragmatik-va-samarali-mulokot-amda-kreativ-iktisodiet-sari>. Murojaat sanasi: 27.12.2023.

¹⁶ Anhor.uz // O'zbekistonda Nike brendi ostida sport poyabzallari ishlab chiqarila boshlandi // <https://anhor.uz/uz/news/zbekistonda-nike-brendi-ostida-sport-pojabzallari-ishlab-chi-arila-boshlandi/>. (Murojaat sanasi: 27.12.2023).

bergan. Bugungi kunda ushbu mashhur brend ishlab chiqaruvchilari qatoridan O‘zbekiston ham o‘rin egalladi.

Birinchi bobning uchinchi paragrafida, **“Digital PR” mohiyati va tipologiyasi** to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. “Digital PR” – bu raqamli kommunikatsiya vositalari orqali tashkilot, brend yoki shaxsning ijobiy imidjini shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan strategik faoliyat bo‘lib, u zamonaviy PR amaliyotining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur konsepsiya internet va mobil platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, podkastlar hamda onlayn OAV kabi kanallardan foydalanishga asoslanadi. “Digital PR” nafaqat an‘anaviy jamoatchilik bilan aloqalarni raqamli muhitga moslashtiradi, balki maqsadli auditoriya bilan interaktiv muloqot va tezkor axborot almashinuvini ta‘minlaydi.

Digital, ya‘ni onlayn PR, asosan, Internetda amalga oshiriladigan har qanday marketing faoliyatidir. R. Jenniferning fikricha, “raqamli marketing – bu iste‘molchilar yoki keng jamoatchilikka xabar yetkazish uchun Internetdan foydalanadigan tashkilotning har qanday reklama faoliyatidir”¹⁷.

Bizningcha, “Digital PR” – *bu korxonalar yoki tashkilotlarning o‘z mijozlari va kuzatuvchilari bilan internet tarmoqlari orqali muloqot qilish usuli bo‘lib, kompaniya imiji va obro‘-sini oshirishga qaratilgan maqsadli auditoriya bilan o‘zaro aloqaning maxsus formatini ifodalaydi. An‘anaviy PRdan farqli ravishda, “Digital PR” onlayn muhitda faol reklama va interaktiv muloqotni o‘z ichiga oladi. Ushbu format ijtimoiy tarmoqlar, ta‘sir o‘tkazuvchilar (fikir yetakchilari), tematik forumlar faoliyatini tashkil etish, shuningdek, brend haqida eslatmalar qoldirish, sharhlar olish va ularda qatnashish kabi faoliyat turlarini qamrab oladi.*

Marketing – mahsulot yoki xizmatning ishlab chiqarilishidan tortib, iste‘molchiga yetkazib berilishigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni qamrab oluvchi kompleks faoliyatidir. PR esa marketingning tarkibiy qismi bo‘lib, mahsulot yoki brendga nisbatan auditoriya e‘tiborini jalb qilish va ishonchni mustahkamlash maqsadida media bilan bevosita hamkorlikka asoslanadi.

Jamoatchilik bilan aloqalar – tashkilot va jamoatchilik o‘rtasida qulay munosabatlarni shakllantirish va ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli kommunikatsiya faoliyatidir. Milliy brandingni boshqarish kontekstida, jamoatchilik bilan aloqalar xalqaro miqyosda tashkilot maqomini belgilashda ishtirok etuvchi asosiy fenomen sifatida namoyon bo‘ladi.

“*Digital PR*” – bu mijozlarga erishishning an‘anaviy vositalaridan (bosma ommaviy axborot vositalari, televideniye va radio reklamalari) farqli ravishda barcha marketing faoliyatini onlayn platformalar orqali amalga oshirishga asoslangan strategiyadir¹⁸.

Shuningdek, Digital PRning turlari va uning xususiyatlari to‘g‘risida keltirilgan bo‘lib, Milliy branding davlatning xalqaro maydondagi obro‘-e‘tiborini mustahkamlash uchun zarur.

Dissertatsiyaning **“Raqamli texnologiyalar muhitida PR va brend jurnalistikasining o‘zaro integratsiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida turli davlat tashkilotlarida raqamli PRdan foydalanishning ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Mazkur bobning birinchi **“Zamonaviy media muhitidagi branding**

¹⁷ Jennifer R. Remodeling marketing communications in an Internet environment // Internet Research, Bradford. - 2001. – № 11(3). – PP. 203-210.

¹⁸ Goldfarb A. Online Display Advertising: Targeting and Obstructiveness // International Journal of Marketing. – 2011. – № 30(3). – PP. 384.

faoliyatida raqamli jurnalistikaning ahamiyati” faslida Digital PR strategiyasining brendingdagi ahamiyati, bugungi kundagi dolzarbligi va an’anaviy PR bilan afzalliklari qiyosiy tahlil qilinadi. Brend jurnalistikasi esa PR menejmentiga asoslanganligi bois bir tomonlama yondashuvni namoyon qiladi. Ammo tahlillar shuni ko’rsatadiki, ko’plab brendlar auditoriya ishonchini qozonish uchun o’z kontentida xolislikka asoslanishga intilishadi.

“Digital PR” texnologiyalari rivojlangani sari brend jurnalistikasida yangi janrlar paydo bo’la boshladi. Bular:

- *video reportaj*;
- *foto yoki video translyatsiya*;
- *realiti-shou* (oflayn va onlayn faollashtirilgan maxsus loyihalar);
- *brend-menejment*. Foydalanuvchilarning izohlariga quruq iboralar bilan emas, balki maxsus infografika, rasm, fotosuratlar yordamida javob qaytarishdir¹⁹.

Isroillik olim, marketing mutaxassisi Chelsi Feyl (Chelsea Feil) ham “milliy brendingni ilgari surishda uzoq muddatli reja uchun Digital PR strategiyalarining bir nechta turlarini aralashtirib, miks shaklda ishlatish yaxshi samara berishi, bunda har bir obyektning yo’nalishi, qadriyatlar va maqsadli auditoriyasidan kelib chiqib, qaror qabul qilish kerakligini ta’kidlaydi. Shuningdek, u Digital PR strategiyaning 8 ta turini keltiradi.

Bular:

- qidiruv optimizatsiyasi (SEO);
- kontent-marketing;
- kontekst reklama (PPC);
- kollaboratsiya;
- nativ reklama;
- ijtimoiy tarmoqlarda marketing;
- videoreklama;
- E-mail-marketing”²⁰.

Yana bir rossiyalik tadqiqotchi Yuriy Rojnov esa “6 ta strategiyaning o’zi etarli ekani, har bir tashkilot o’ziga mos keladigan bittasini tanlab qo’llashi kerakligini ta’kidlaydi:

- 1) kontent-marketing; 2) SEO optimizatsiya; 3) SMM; 4) email-marketing; 5) reklama; 6) veb-tahlil”²¹.


Tashqi brendni qurishda PR strategiyasini ishlab chiqish to’rt bosqichdan iborat: tahliliy, tashkiliy, amalga oshirish hamda ish faoliyatini baholash (2.1-rasm)²²

¹⁹ – URL: <https://www.cossa.ru/152/86090/> (murojaat sanasi: 15.06.2024).

²⁰ Feil Ch. //Didjital marketing: что это и как построит выигрышную стратегию. <https://www.similarweb.com/blog/ru/marketing/seo/digital-marketing-101-what-is-it-and-how-do-you-build-a-winning-strategy/>. Murojaat vaqti: 04.10.2023


²¹ Rojnov Yu. //PR инструменты брендинга как способ управления сознанием потребителя // Научно-образовательный журнал для студентов и преподавателей «СтудНет»// №7/2022. S.7358

²² PR-strategiya// PR.STUDENT// <https://www.prstudent.ru/pr-strategiya>. (Murojaat sanasi: 05.10.2023)



2.1-rasm

O‘zbekiston sharoitida turli tashkilotlar va piar kompaniyalar milliy brendingni qurishda quyidagi yo‘nalishlardan samarali foydalanib kelmoqda:



Tadqiqot obyekti hisoblangan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatida, asosan, kontent-marketing, ijtimoiy tarmoqlarda marketing, videoreklama kabi unsurlardan faol foydalanilmoqda. Ammo bularning tag zamidavlat tashkilotining mamlakat ichidagi imijini rivojlantirish yotganini alohida ta’kidlash o‘rinli, ammo *nativ reklama*, *influence marketing*, *event-marketing* strategiyalaridan foydalanish darajasi sust.

Shuningdek, bobning birinchi faslida milliy brendingni yaratishda qo‘llaniladigan PR strategiyalarining har bir davlatning o‘ziga xos jihatlari asosida ishlab chiqilishi zarurligi ta’kidlanadi. Bu o‘ziga xosliklar milliy brending muvaffaqiyatli rivojlanishiga yordam beradi va strategiyalarni amalga oshirishda davlat tashkilotlarining ahamiyati o‘rganiladi. Tahlil davomida, Digital PR strategiyalarining samaradorligi va ularni amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolar ko‘rsatilgan.

Bobning ikkinchi faslida **Oliy ta’lim muassasalari brendingida raqamli PR vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari** ko‘rib chiqilgan. National Defense University professori Erika Marat o‘z tadqiqotlarida Markaziy Osiyo davlatlarining milliy brendingdagi salohiyati va imkoniyatlarini quyidagicha tahlil qilgan: “Sayyohlar va investitsiyalar uchun xalqaro raqobatni nazorat qilishning iloji yo‘q. Bunda hukumatlar ko‘proq ichki resurslardan foydalanishlari va o‘z imidjlarini ommalashtirishga intilishlari lozim. Sababi, mamlakatlar ommaviy axborot vositalari, bayramlarni nishonlash va ta’lim, madaniyat va harbiy kabi jamoat institutlarini nazorat qila oladi²³.

²³ Erica Marat. *Nation Branding in Central Asia: A New Campaign to Present Ideas about the State and the Nation* // Europe-Asia Studies. – 2009. – Vol. 61, № 7. – C. 1123–1136. DOI: 10.1080/09668130903068657.

Demak olim OAV, ta'lim, madaniyat va harbiy sohalarni davlatning ichki resursi sifatida ko'radi va ularni rivojlantirish orqali turistik va investitsion harakatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin degan fikrni ilgari suradi.

Fan va ta'limning milliy brendingning muhim komponenti ekanini quyidagi iqtibos ham ta'kidlaydi: "Milliy brendingning maqsadi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, import-eksport savdosi, fan, ta'lim, malakali ishchi kuchi va turizm kabi sohalarda xalqaro resurslar uchun mamlakatga yordam berishdir"²⁴.

O'zbekistonda har bir tashkilotning xalqaro maydondagi brending qurishga qadamlari ichki brendni rivojlantirishdan boshlanadi. Shundan kelib chiqib, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Xalq bankining mahalliy OAV va ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatini qisqacha ko'rib chiqish maqsadga muvofiq (2.2-jadvalga qarang!). Xalq banki PR va brending sohasida yetarlicha natijalarga erishgan tashkilot sifatida tanlandi. (Ta'kid – A.Aslanova).

Davlat tashkilotlari tomonidan Digital PRdan foydalanishning qiyosiy tahlili

T/r	Strategiyalar	Tashkilot nomi	Tashkilot nomi
		Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi	Xalq banki
1.	Influence marketing	-	+
2.	Partnership (kollaboratsiya)	+	+
3.	Target	+	+
4.	Onlayn formatdagi OAV	+	+
5.	Event marketing	+	+
6.	OAVda chiqishlar	+	+
7.	Kontent marketing	-	+
8.	Nativ reklama	-	+
9.	Qidiruv optimizatsiyasi (SEO)	+	+
10.	Videoreklama	+	+
11.	SMM	+	+
12.	Elektron pochta marketingi	+	+
13.	Kompaniya sayti	+	+

2.2-jadval

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi matbuot xizmatida PR yoki brend jumalari yo'qligi bu soha uchun alohida xodim jalb etilmaganidan dalolat beradi. Lekin, shunga qaramasdan, matbuot xizmati xodimlari raqamli PR strategiyalaridan foydalanishga intiladi.

Vazirlik matbuot kotibi, bir necha yillik tajribaga ega mutaxassis – Nazokat Abduqunduzova barcha axborot xizmati rahbarlari singari ijtimoiy tarmoqlarda faol, o'z ishini keng targ'ib qilishga intiladi. Lekin storislarda faol emasligi, "preproduction – production – postproduction" yondashuvidan foydalanmasligini ta'kidlash zarur.

Jadvaldan ko'rish mumkinki(2.2 jadvalga qarang), Oliy ta'lim, fan va

²⁴ Кусраева А. Национальный брендинг: возможности для бизнеса в России // Российский журнал менеджмента. – 2021. – № 19(4). – С. 616-631.

innovatsiyalar vazirligida kontent marketing strategiyasidan umuman foydalanilmaydi, nativ reklamalar koʻzga tashlanmaydi. Buni ham axborot xizmati tarkibida PR mutaxassis yoʻqligi bilan izohlash mumkin. Qolaversa, vazirlik axborot xizmati urgʻuni informativ kontentga qaratadi.

“Raqamli PR” u xoh davlat, xoh nodavlat boʻlsin, har bir tashkilotga suv va havodek zarur. “Digital PR” davlat tashkiloti va OAV, tashkilot va jamoatchilik oʻrtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi, tashkilotning nufuzini tez va samarali oshiradi, xalqaro maydonda milliy brend sifatida tanitishga yordam beradi. Mumtoz PR orqali bu maqsadlarga sekinlik bilan erishib kelingan boʻlsa, bugungi kunda raqamli texnologiyalar, instrumentlar va marketing strategiyalar orqali bunga tez, oson va samarali ega boʻlish mumkin. Bundan tashqari, har bir davlat tashkiloti haqida istalgan fikrni shakllantirish imkoniyati mavjudligi taʼkidlangan.

Mazkur bobning uchinchi faslida, **Digital PR instrumentlarini joriy etishning tashkiliy-metodologik jihatlari** haqida kengroq maʼlumotlar keltirilgan.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, koʻpgina davlat tashkilotlarining axborot xizmatlari ijtimoiy tarmoqlarda post joylashish bilan cheklanishadi, ularning kommunikatsiya va interaktivlik koʻrsatkichi past. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda faollik, faqat bir tomonlama muloqotdan iborat boʻlib, auditoriya bilan muloqot va ularning fikrini eshitishga eʼtibor berilmaydi. Bu esa brend ishonchining shakllanishi va muvaffaqiyatli kommunikatsiya uchun toʻsiq boʻladi. Tahlil natijasida, Facebook sahifalarini qiyosiy oʻrganish orqali, Innovatsion rivojlanish agentligi va Adliya vazirligining ijtimoiy tarmoqlarda samarali foydalanilmaganligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Milliy brandingni rivojlantirishda digital PR texnologiyalarini qoʻllash istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobning birinchi paragrafidagi brend-kontentning empirik xususiyatlari, uning tarkibi va brend targʻiboti jarayonining murakkabligi haqida maʼlumotlar keltirilgan. Ushbu faslda tadqiqot obyekti hisoblangan – Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan milliy va xalqaro OAVning barcha turlarida eʼlon qilingan materiallar tahlil qilinadi. Brend targʻiboti kompleks va uzoq muddatga moʻljallangan jarayon sifatida, kontent tayyorlash, qayta ishlash va auditoriyaga taqdim etishdan tortib, uning auditoriyaga taʼsiri, qayta aloqa va tahliliga qadar boʻlgan bosqichlarni oʻz ichiga oladi. Tahlil davomida, Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan eʼlon qilingan PR-materiallar, ularning mazmuni va formatlari tekshiriladi, shuningdek, ularning auditoriyaga taʼsirini oʻrganish ham muhim masala sifatida koʻrib chiqiladi.

Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining mediadagi ichki va tashqi brendni ilgari surish maqsadidagi chiqishlarining barchasini ham PR-matn deyish mumkinmi? Albatta, bu savolga aniq javob berish mushkul. Shu bois tahlilni aynan PR-matnlarga qoʻyiladigan talablar asosida emas, balki ularni moslashtirib, oʻz nuqtayi nazarimizdan shakllantirilgan mezonlar asosida oʻrganishga qaror qildik. Mezon rossiyalik tadqiqotchilar Yaroslava Jukova va Karolina Kotovichning yondashuvlari hamda oʻzimiz ilgari surgan kriteriyalar asosida quyidagicha shakllantirildi.

- konsepsiya (reja, tasvir mazmuni);
- strategiya (maqsad va unga erishish vositalari);
- nashr mavzulari va formatlari;
- matn hajmi;
- ton of voice;
- brend ochib berilganligi darajasi;
- uslub;

– janr va format xususiyatlari.

T/r	Mezonlar ²⁵	Ballar	To‘plandi
AXBOROT XIZMATI RAHBARI FAOLIYATI ISH HAJMI			
Matbuot anjumanlari, brifinglar, press-turlar, taqdimotlar va boshqa tadbirlar (press-tadbirlar) soni			
1.	6 va undan ortiq press-tadbir	10	
	5 ta press-tadbir	8	
	4 ta press-tadbir	6	
	3 ta press-tadbir	4	
	2 va undan kam press-tadbir	0	
Ijtimoiy tarmoqlarda onlayn efirlar soni			
2.	6 va undan ortiq onlayn efir	10	
	5 ta onlayn efir	8	
	4 ta onlayn efir	6	
	3 ta onlayn efir	4	
	2 va undan kam onlayn efir	0	
Axborotni etkazib berish shakli (har oyda bir martadan kam bo‘lmagan holda)			
4.	infografika tarzida	10	
	foto, video shaklida	8	
	matn shaklida	6	
	axborot e‘lon qilinmasa	0	

3.1-jadval

3.1-jadvalda keltirilgan mezonlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan axborot xizmatining aynan OAVda chiqishlarini baholaydi. Jadvalda berilganidek, onlayn efirlarning ko‘pligi, kontentning multimedaviy instrumentlar bilan boyitilganiga qarab ball ham yuqori hisoblanadi.

Vazirlik axborot xizmati tomonidan taqdim qilingan ma‘lumotga ko‘ra, vazirlik axborot xizmati tomonidan 2023-yil davomida turli media vositalari orqali 167 ta infografika, 5489 ta foto, 832 ta video, 3204 ta matn shaklida axborot taqdim etilgan. Shulardan televideniya 698 ta, radioda 113 ta, gazetada 213 ta, veb-saytlarda esa umumiy 771 ta material e‘lon qilingan. Ijtimoiy tarmoq va messenjerlarda 413 ta post joylangan. Xalqaro mediada esa milliy branding targ‘ibotiga qaratilgan jami 33 ta material uzatilgan.

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan bir yil mobaynida xorijiy OAV da e‘lon qilingan maqolalarning janrlar kesimidagi tasnifi

T/r	Janrlar	Soni
1.	Xabar	18
2.	Tahliliy ko‘rsatuv	-
3.	Suhbat	8
4.	Tahliliy maqola	7

²⁵ “Davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmati rahbarini lavozimga tayinlashni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi yoki uning hududiy boshqarmalari bilan kelishish, ularni attestatsiyadan o‘tkazish hamda ish samaradorligini baholash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktorining 2019-yil 26-avgustdagi 324-son buyrug‘iga ilova. Murojaat sanasi: 18.04.2024.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki(3.2-jadval), vazirlikning xorij mediasidagi chiqishlarida informativ va tahliliy xarakterga ega kontent ustunlik qilgan. Ya’ni “bo‘lib o‘tdi”, “memorandum imzolandi” kabi veb-saytlarda e’lon qilingan xabarlar ko‘proq o‘rin egallaydi. Aynan suhbat hamda tahliliy maqola janridagi materiallarda esa brendning muayyan qirralarini ochib berish imkoniyati ko‘proq ekani ayon bo‘ldi.

Mahalliy bosma OAVdagi chiqishlarda ham tahliliy maqola yetakchi o‘rin tutadi. Hajm jihatidan katta, tahlil jihatidan chuqur qiymatga ega materiallar tahliliy maqola talablariga javob beradi. Vazirdan tortib boshqarma boshliqlari, vazir maslahatchisidan tortib institut professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, ilmiy izlanuvchilarining tor mavzudagi chiqishlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘quvchiga muayyan mavzuda bilim beruvchi, tafakkurga undovchi ushbu maqolalarda aynan brend targ‘ibotini to‘g‘ridan-to‘g‘ri uchratish mushkul. Aksariyatida biror loyiha yoki startap shu vazirlik tomonidan moliyalashtirilgani haqidagi ma’lumot bilan cheklaniladi. Kompaniyaning ton of voisi ustida ishlanmasligi, OAVdagi kontentlarda kompaniya imijini shakllantirish ustida bosh qotirilmasligini yuqoridagi tavsiflar orqali ko‘rish qiyin emas.

Bobning ikkinchi faslida **“Ta’lim tashkilotining GFR brendi rivojida “Digital PR”dan foydalanish tajribasi”** ko‘rib chiqilgan.

Germaniya Ta’lim va ilmiy tadqiqotlar federal vazirligi faoliyati misolida, Digital PR texnologiyalari va strategiyalarining qanday ishlatilgani tahlil qilinadi. Ushbu vazirlik, Germaniyani ilmiy izlanishlar va innovatsiyalar sohasida jozibador mamlakat sifatida tanitishni maqsad qilgan. Bu uchun "Germaniyada tadqiqot – g‘oyalar mamlakati" brendi ostida global miqyosda PR strategiyalarini ishlab chiqmoqda. Vazirlikning asosiy maqsadi, yuqori salohiyatga ega olimlar va investorlarni Germaniyaga jalb qilishdir.


PR kompaniyalarida Digital PR texnologiyalari keng qo‘llaniladi. Masalan, VR texnologiyalari, SEO optimizatsiya, targeting, sun’iy intellekt, kontent-marketing va inflyuyens marketing kabi usullar Germaniyaning ilmiy va innovatsion salohiyatini samarali yoritishda ishlatiladi.

Bobning uchinchi **“Milliy brandingni rivojlantirishda kommunikativ strategiyalar samaradorligini baholash metodologiyasi”** paragrafida brend yaratish va strategiyalarni ishlab chiqish bilan birga, brend taniqliligini oshirish, axborot bozoridagi mavqeyini mustahkamlash va uning natijaviyligini baholash hamda kuzatish zarurdir. Ushbu jarayonda strategik faoliyatning statistikasi yuritilib, auditoriya bilan aloqalar o‘rnatildi va tahlil asosida xulosalar chiqarildi.


O‘zbekistonda brendni ilgari surishning maxsus xususiyatlari mavjud. Milliy brandingni ilgari surishdagi natijalar, asosan, davlat tashkilotlarining xalqaro nufuzi va milliy brend sifatida tanilishi bilan bog‘liq. Tadqiqot davomida Google form va Telegram messenjeri orqali so‘rovnoma o‘tkazildi. Google formda 239 kishi ishtirok etdi, shundan 10 foizini O‘zbekistondan tashqaridagi fuqarolar tashkil etdi.

